FTIZIATRIYA KAFEDRASI TARIXI

O‘quv, ilmiy va madaniy-ma’rifiy jarayonlarni amalga oshirish uchun institutda tashkil etilayotgan kafedralar qatorida 1964 yilda terapiya kafedrasi tarkibida “Ftiziatriya” nomi bilan birinchi kurs ochilgan.

Kafedra 1964-yilda ftiziatriya kursi sifatida tashkil etilgan. Birinchi kurs mudiri Qurbonali Boltabaev edi.

Qurbonali Boltaboevich Boltaboev (1925-2006 yillar)

1974 yili K.B. Baltabaevning sa’y harakati evaziga ftiziatriya kafedrasiga asos solingan. Kafedra assistentlari lavozimida t.f.n. R.YU. Ibragimova, O.M.Musaev, t.f.n. K.G.Gofurov, A.A.Ablyazov, assistentlar T.T. Teshaboev, A.N.Nishanov, M.M. YUsupovlar ishlashgan.

Kafedra mudirimiz Andijon Davlat tibbiyot instituti asoschilaridan biridir.

Kafedraning ilmiy yo‘nalishi – «Andijon viloyatida birlamchi va ikkilamchi doriga turg‘unligini aniqlash»ni o‘rganish edi.
Q. Boltaboev va R.Ibragimovalar shu yo‘nalishda ilmiy izlanishlar olib bordilar. Farg‘ona vodiysida yagona bo‘lgan, kafedrada ilk bor ilmiy- klinik laboratoriya tashkil etilgan. Unda ozuqa muhitlarida mikobakteriyalarni o‘stirib, birlamchi va ikkilamchi dorilarga turg‘unlik hamda turli zamburug‘lar aniqlangan.

Ustozlar va yosh kadrlar talabalar bilan anjumandan so‘ng.

Bolalar sil kasalligi kafedrasi va shifoxonaning shifokorlari ilmiy – amaliy anjumandan so‘ng.

Bemorlarni yosh mutaxassislar bilan birgalikda muhokama etish, amaliyotni boyitish ularning klinik fikrlash doirasini kengayishiga asos bo‘lar edi. Har bir muhokama qilingan bemor talabalar yodida uzoq vaqtga muhrlanar edi.

Kafedrada prof. K.B.Baltabaev, dotsentlar R.YU.Ibragimova, O.M.Musaev, t.f.n., K.G‘.G‘ofurovlar ishlagan. SHuningdek assistentlar T.T.Teshaboev, A.N.Nishonov, M.M.YUsupov va t.f.n. A.A.Ablyazovlar faoliyat ko‘rsatishgan. 1978 - 1980 yillarda kafedraga istiqbolli o‘qituvchilar qo‘shildi. Ular: t.f.n. V.R. Pulatov, V.M. Kostirina, Z.N. Makaseeva, I.P. Poluektova.

Institut va amaliyot tarixida birinchilar qatori kafedrada klinik ordinatorlar va interna vrachlarni ilmiy faoliyatga yo‘naltirish maqsadida bitiruv qurs ishi yoqlashi yo‘lga qo‘yilgan.

SHifoxona shifokorlari bilan reja asosida muntazam ilmiy - amaliy anjumanlar tashkil qilinar edi. Ma’ruzalar bilan etakchi mutaxassislardan tashkari yosh kadrlar ham faol qatnashgan, har hafta tibbiyotda va ftiziatriyada yangiliklar bilan jamoa tanishtirilgan.

SHu davr ichida kafedra xodimlari tuman ftiziatriya dispanserlariga reja asosida chiqib, ularni o‘tkazilayotgan ishlari bilan tanishib, aniqlangan kamchiliklar bo‘yicha seminar mashg‘ulotlar, maxorat darslari, og‘ir bemorlarning ko‘ruvlari tashkil etilgan. Xar oy ftiziatrlar ilmiy jamiyati yig‘ilishi o‘tkazilar edi. Bu jamiyatni asosiy maqsadi viloyatda aholiga ko‘rsatilayotgan ftiziatriya xizmatini yaxshilash, tuberkulyoz profilaktikasini yo‘lga qo‘yish va bemorlarni imkon darajasida barvaqt aniqlash edi.

K.A.Boltabaev o‘z shogirdlari bilan amaliy shifokorlarga yordam ko‘rsatish maqsadida tuman silga qarshi shifoxonalari, dispanserlariga tashrif buyurgan hamda og‘ir bemorlarga amaliy yordam tariqasida tibbiy ko‘ruvlar, konsultatsiyalartashkil etgan. Dispanser nazoratida turgan bemorlarning tibbiy xujjatlarini tahlil etib, guruhlarda harakatlanishni yaxshilash bo‘yicha yordam berilgan. Har bir tuman shifokorlari bilan amaliy va nazariy anjumanlar tashkil qilingan, ma’ruzalarni ustoz ko‘pincha yosh kadrlarga topshirib ularni ilmiy saviyasi, pedagoglik mahoratini shakllantirgan.

Kafedra jamoasi muntazam Sovet Ittifoqi ftiziatrlar s’ezdlarida faol qatnashishgan. Bundan tashqari ilmiy ishlari bo‘yicha Andijonni o‘zida etakchi mutaxassislar yordamida anjumanlar tashkil qilingan.

Andijon shahrida 2-butunittifoq ftiziatrlar anjumanining o‘tkazilishi. Ustozni ilmiy doiralardagi qozongan saloxiyati va olim sifatida hurmatini yorqin tasdig‘i bo‘lgan. Rasmni markazida ikkinchi qatorida akademik A.G. Xomenko.

1980-1981 o‘quv yilida viloyat bolalar silga qarshi kurash shifoxonasida pediatriya fakulteti talabalari uchun “Bolalar sil kasalligi” kursi tuzildi va unga dotsent R.YU.Ibragimova rahbarlik qildi.

Roza Yusupovna Ibragimova(1933-2011 yillar)

“Bolalar sil kasalligi” kursi mudiri, dotsent. Bilimdon ayol, mexnatsevar oila bekasi, g‘amxo‘r ustoz, bir so‘z bilan aytganda ajoyib inson edi. Sodiq umr yo‘ldoshi, mehribon ona va so‘z ustasi. Uning serqirra faoliyati davomida 150 dan ortiq ilmiy maqola va uslubiy qo‘llanmalar yaratildi. Bu izlanishlar natijasida ko‘plab bemorlarni samarali davolashga erishildi va ko‘plab insonlar hayoti saqlab qolindi. Patologik - anatomik konferensiyalarni dotsent R.YU Ibragimova muntazam o‘tkazar edi. Har bir voqea chuqur tahlil etilib, kasallik tarixidagi kamchiliklar, bemorni o‘limiga sabab bo‘lgan holatlar, ko‘rsatilgan davo sifati baholanib, kelajakda xatolarga yo‘l qo‘ymaslik maqsadida zaruriyat bo‘lganda hayfsan e’lon qilinar edi. Bu holat ayniqsa yoshlarga katta ta’sir qilar, har bir bemor bo‘yicha yosh mutaxassis tushunmagan narsalarini bemalol dotsent yoki professordan so‘rab olar edi. Ustozlarimiz bag‘ri keng, turli savollarga sabr va toqat bilan javob berishar, ko‘p narsalarni tushuntirib, yosh kadrlarni fikrini bilib, kamchiliklarni o‘z vaqtida to‘g‘irlab berishardi. Bu buyuk ustoz va shogird munosabati, katta maktab bo‘lgan.

O‘quv jarayoniga interaktiv o‘qitish usullarini keng tadbiq etishgan. Talabalar ilmiy - amaliy anjumanlarini o‘tkazish, eng yaxshi bemorni muhokamasi, eng mukammal ilmiy ma’ruza va shunga o‘xshash tadbirlarni asoschisi R.YU. Ibragimovadir. Ustozni bu kiritgan odatlari bugungi kunda xam kafedra xodimlari tomonidan yanada takomillashtirilib, o‘quv jarayonida keng ishlatilmoqda.

K.B.Baltabaev kafedra rahbari sifatida Sovet Ittifoqining yetakchi institutlari bilan yaxshi aloqa o‘rnatgan edi. Moskva shahridagi SSSR Markaziy ftiziatriya instituti hamda Moskva shahridagi 1- tibbiyot institutida 1982-1988 yillarda kafedraning bir qator xodimlari – V.V. Muratov nomzodlik va doktorlik

dissertatsiyalarini bajargan, R.A.Xakimova (1982- 1985) ; SH.B.Oxunov (1983-1986); V.V. Dadaboev (1985-1987); A.A.Abdullaev (1986- 1988), M.M.Yusupovalar (1987-1989) maqsadli aspiranturani muvaffaqiyatli tamomlab, nomzodlik dissertatsiyalarini muvaffaqiyatli bajardilar. Bu kafedraning ilmiy jixatdan eng yuksak rivojlanish yillari edi.

Professor Q.Boltaboev institut miqyosida ham mas'uliyatli lavozimlarda faoliyat ko'rsatdi: davolash fakultetining dekani va sobiq partiya tashkilotining kotibi vazifalarini sidqidildan ado etdi. 1992 yildan nafaqaga chiqqan.

1992 yildan 2000 yilgacha kafedraga tajribali mutaxassis t.f.n., dotsent SH.B. Oxunov mudirlik qildi. U etuk olim, mohir pedagog sifatida faoliyat ko'rsatdi.

Sherzod Bayxanovich Axunov (1952-2000 yillar)

Shu davr ichida kafedrada xodimlari tomonidan bir nechta ilmiy ishlar yakunlandi. Kafedraning ilmiy yo'nalishi tuberkulezda rivojlangan ikkilamchi turg'unlik, nogironlik, jarroxlik yo'nalishida o'zgarishlarni o'rganishga qaratilgan edi. Bir nechta nomzodlik va doktorlik dissertatsiyalari himoya qilingan. Jumladan: R.D.Payziev doktorlik dissertatsiyasini, R.A.Xakimova V.V.Dadaboev, M.M.Yusupova va yana boshqalar nomzodlik dissertatsiyalarini muvaffakkiyatli yoqladilar.

Keyingi yillarda barcha jabhalar kabi o'tish davri qiynchiliklari kafedraning ilmiy salohiyatiga salbiy ta'sir ko'rsatdi: K.B Baltabaev, R.YU. Ibragimovalar nafaqaga chiqib ketishdi, V.V. Muratov Rossiyaga ko'chib ketdi, so'ng esa SH.B. Axunov bevaqt qatorimizdan ketdi.

2001-2004 yillari kafedraga t.f.d., t.f.d R.D.Payziev mudir etib tayinlandi. R.D.Payziev Andijon shahar silga qarshi kurash dispanseri bosh vrachi lavozimida faoliyatini davom ettirishi munosabati bilan kafedraga 2004 yildan boshlab t.f.n., dotsent A.A.Abdullaev mudir etib tayinlandi. 2005 yilda dotsent A.A.Abdullaev klinikani pulmonologshiya bo'limiga mudirligiga o'tkazildi.

2005 yildan hozirgacha esa kafedrani t.f.n., dotsent R.A.Hakimova boshqarmoqda.

2009-2011 yillarda kafedra dotsenti R.A.Xakimova ilmiy rahbar va kafedra assistenti J.X.Xalilov ilmiy izlanuvchi

sifatida davlat grantini bajarishdi, «Diagnostika i differensialnaya diagnostika tuberkuleza u VICH infitsirovannых. Organizatsiya i provedenie antiretrovirusnoy terapii u VICH infitsirovannых bolnых tuberkulezom v Andijanskoy oblasti», 2009 - 2011 yillarda amaliy davlat granti ITSS-28 (jami 71 mln. sumli) bajarildi. Bu grant tekshiruvi natijasida bir nechta o‘quv - uslubiy qo‘llanma, ilmiy maqolalar va ratsionalizatorlik takliflari amaliyotga tadbiq etildi.

Keyingi yillarda o‘quv jarayoni zamonaviy texnik vositalari (slaydoskop, kodoskop,kompyuter,negetaskop, videomagnitofon, televizor, DVD va b.) bilan keng ta’minlandi. SHulardan foydalanib zamonaviy talabga javob beradigan video ma’ruzalar, amaliy mashg‘ulotlar uchun prezentatsiyalar, video o‘quv filmlar yaratilib amaliyo mashg‘ulot va ma’ruzalarda keng qo‘llanmoqda.

Kafedrada davolash fakulteti va kasbiy ta’lim yo‘nalishi 4 - kurs talabalari, pediatriya fakultetini 5 kurs, tibbiy-profilaktika yo‘nalishi 4-kurs talabalari, stomatologiya fakulteti 3- kurs talabalari, o‘nlab klinik ordinatorlar va rezidentlar uchun o‘kuv jarayoni tashkil etilgan. O‘quv jarayoniga zamonaviy texnik vositalari bilan talbiq etilgan.

Talabalar bilan sikl yakunida ftiziatriyaning dolzarb mavzulari bo‘yicha ilmiy-amaliy va klinik anjumanlar o‘tkazilishi an’anaga aylangan.

Yangi pedagogik texnologiyalar, internet va yangi adabiyotlar ma’lumotlaridan foydalanib, ma’ruzalar o‘qish va amaliy mashg‘ulotlarni olib borish takomillashtirilgan. Oxirgi besh yil davomida kafedrada o‘quv uslubiy ishlar yanada yuqori darajaga ko‘tarildi. Interfaol o‘qitish usullari kiritildi va amaliyotga tadbiq etildi

2016 yil 15 oktyabrda kafedra Andijon viloyati ftiziatriya dispanseri xududiga ko‘chib o‘tdi. Manzili: Asaka tumani Yangi Sor MFY

Magistratura kafedrada 2012 yilda ochilgan. Bitiruv dissertatsiya ishini yoqlash uchun Toshkent malaka oshirish instituti ftiziatriya kafedrasi mudiri, t.f.d., professor D.Z. Muxtarov xay’at raisi sifatida tashrif buyurgan va himoyani o‘tkazgan.

Kafedrani talabalar ilmiy jamiyati “Stop TB” faol ish olib bormoqda. Oxirgi yillar ichida to‘garak a’zolari ilmiy - amaliy anjumanlarda faol qatnashib

kelmoqda. 2019 yili talabalar va yosh olimlar ilmiy-amaliy anjumanida davolash fakulteti 4 kurs talabalasi **Islom Bektashev faxrli 1 o‘rinni oldi. U yaratgan innovatsion g‘oya quyidagicha: yangi nazorat usuli IT- usulini qo‘llash tavsiya qilindi.**

Talabalarni har tomonlama rivojlangan shifokor qilib tayyorlashda yosh mutaxassisda nutq madaniyati, deontologiya qoidalariga rioya etish, bemor va uni qarindoshlari bilan muloqot olib borishda ma’naviy va madaniy ko‘nikmalar shakllantirish shart. SHu ko‘nikmani shakllantirish uchun yuqorida yoritilgan ilmiy-amaliy anjumanlardan tashqari turli ma’naviy-ma’rifiy tadbirlar muntazam ravishda olib boriladi.

Kafedrada ma’naviy va ma’rifiy ishlar yukori saviyada olib borilmoqda

Har bir talabalar guruhlari ma’naviyat va ma’rifat xonasi bilan tanishtirilib, milliy istiqlol g‘oyasi targ‘ib etiladi. O‘zbekiston Respublikasi mustaqillik odimlari, davlatimiz ramzlari bilan, O‘zbekiston Respublikasi davlat bayrog‘i, gerbi, madhiyasi xaqida suhbatlar o‘tkazilmokda. YOshlar orasida qonunbuzarlikka, giyoxvandlikka qarshi kurash, Markaziy Osiyoda narkobiznes muammosi haqida davra suhbatlari muntazam o‘tkazib boriladi.“Ona –Vatanga muxabbat”, “Vatan – muqaddas tuyg‘u” mavzularida adabiy kechalar o‘tkazilmokda. O‘zbekiston Respublikasi prezidenti SH.M.Mirziyoevning asarlari, Oliy majlis Qonunchilik palatasi Senatining majlislaridagi ma’ruzalarning mazmun-mohiyatini tushuntirish ishlari olib borilmokda. O‘zbek milliy qadriyatlarining ko‘zga ko‘ringan siymolari haqida suhbatlar o‘tkazildi: Ibn Sino, Amir Temur, A.CHo‘lpon, Z.M.Bobur, At-Termiziy,Al-Farg‘oniy, J.Manguberdi, Temur Malik, Alpomish va boshqalar. A.Navoiy, Amir Temur, Z.M.Bobur tavalludiga bag‘ishlab teatrlashtirilgan sahna ko‘rinishlari tayyorlab ko‘rsatildi, foto albomlar yaratildi.

Viloyat ftiziatriya dispanseri va PROJEKT HOPE va USAID O‘zbekistondagi ta’sischilar bilan birgalikda tuberkulezni oldini olish va samarali davolanib ketish imkoni borligini ifodalash maqsadida tadbir o‘tkazildi. Ma’ruzadan tashqari bemorlarni davolanishga sadoqatini oshirish uchun sahna ko‘rinishi namoyish etildi. Tumanlarda nazoratli davolashni samarali yakunlagan bemorlar taklif qilinib, ularga sovg‘alar tarqatildi. So‘zga chiqqan bemorlar o‘zlarini dil so‘zlarini aytib, xozirda davolanayotgan bemorlarga dorilarni nazorat ostida muntazam qabul qilgandagina samarali natijaga erishish mumkinligini tushuntirishdi.

Bundan tashqari bemorlar va ularni yaqinlar uchun “Bemor maktabi” tashkil etildi, har bir tuman tibbiyot oilaviy poliklinikalarida shunday maktablar yaratilishi, faol ish olib borilishi yaxshi natijalarga olib kelinishi homiylar tomonidan tushuntirildi. Kafedra xodimlari va TIJ a’zolari tomonidan bo‘limlarda yaratilgan “Bemor maktabi ” uchun turli plakat, illyustratsiya materiallari va maketlar tayyorlashda katta yordam ko‘rsatildi. Bemorlarda katta qiziqish va taassurot qoldirilgan, Islombek Bektashev tomonidan yaratilgan maketlarda qanday sharoitda tuberkulyoz kasalligi rivojlanishi mumkinligi va qaynday sharoitda kasallik avj olmasligi aks ettirilgan. Maketni yarmida yorug‘, pokiza, saranjom xona ifodalangan bo‘lsa, ikkinchi yarimida zax, qorong‘u, antisanitar holatdagi xona ko‘rsatilgan.

Kafedra xodimlari Viloyat ftiziatriya dispanseri brigada tarkibida yoki mustaqil tuman ftiziatriya muassasalari xodimlari bilan seminar, mahorat darslari, amaliy anjumanlar tashkil etadi.

Ixtisoslashtirilgan viloyat bolalar sixatgohi xodimlari bilan seminar

Qo‘qon shahar 1-oilaviy poliklinikasida tuberkulezni barvaqt aniqlash bo‘yicha mahorat darsi.

Izboskan tumani umumiy amaliyot shifokorlari uchun ftiziatriya kafedrasi, VSQKD va tuman DSENM xodimlari tomonidan o‘tkazilgan amaliy anjuman.

2020 yildan boshlab kafedra xodimlari tomonidan chet el ftiziatriya yo‘nalishi bo‘yicha etakchi olimlarining ma’ruza va seminarlar o‘tkazishga taklif etish yo‘lga qo‘yilmoqda.



O‘zbekiston respublikasi ixtisoslashtirilgan ftiziatriya va pulmonologiya ilmiy-amaliy markazi innovatsion masofaviy ta’lim tizimida “Generic” zamonaviy tuberkulezni tashxisot markazining etakchi mutaxassisi t.f.n. D.V. Medvedev tomonidan ftiziatriya kafedrasi xodimlari va talabalari uchun onlayn ma’ruza “Bolalarda tuberkulezni aniqlashda va qiyoslashda innovatsion Diaskintest usulini qo‘llash” o‘tkazildi.

2021 yilning 10-fevral kuni onlayn vebinar: “Ftiziopulmonolog shifokori amaliyotida notuberkulez mikobakteriyalar o‘rni” ma’ruzachi t.f.d. Zayseva Anna Sergeevna (O‘pka kasalliklari bo‘limi rahbari) Rossiya markaziy ilmiy-amaliy ftiziatriya instituti Moskva shaxri.

2021 yilning 24-fevral kuni “Latent tuberkulezni tashxislash usullari va davolash prinsiplari” t.f.d. Karpina Natalya Leonidovna (nafas a’zolari kasalligi tashxisoti va reabilitatsiya markaz rahbari) Rossiya markaziy ilmiy-amaliy ftiziatriya instituti Moskva shahri.



2021 yilning 25-mart kuni Toshkent pediatriya instituti tomonidan tashkil etilgan onlayn halkaro konferensiyada Sankt-Peterburg ftiziatriya kafedrasi mudiri, professor Lazovskaya Marina Eduardovnani “Bolalarda tuberkulezni barvaqt aniqlash usullari” mavzusida video-ma’ruza tinglandi.

Kafedra xodimlari quyidagi mavzular bo‘yicha ilmiy tekshiruv ishlari olib bormoqdalar:

1. R.A.Xakimova, D.K. Maksumova, I.I. Bektashev - Tuberkulezda doriga turg‘unlik paydo bo‘lishini oldini olish usullarini takomillashtirish;
2. R.A.Xakimova, ADTI doktoranti I. Mamatova ilmiy ishini fragmenti: doriga turg‘un tuberkulezni kompleks davolashda halk tabobati (bioqo‘shimchalarni) qo‘llash;
3. R.A.Xakimova, R.K. Abdumanapova, B.T. Botirova, SH.YU. Oripov - YOshlarda komorbid xollarda infiltrativ tuberkulezni kechishi;
4. R.A.Xakimova, M.J. Xudayberdieva, G‘.I. Sultonov, I.K. Mavlyanov – Abdominal tuberkulez tashxisotida yangi diagnostik usullarni qo‘llash .

   Ilmiy ishlarni tahlili davomida kafedra xodimlari quyidagi patentlarni qo‘lga kiritdi:

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI INTELLEKTUAL MULK AGENTLIGI
АГЕНТСТВО ПО ИНТЕЛЛЕКТУАЛЬНОЙ СОБСТВЕННОСТИ РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН

ELEKTRON HISOBLASH MASHINALARI UCHUN YARATILGAN DASTURNING RASMIY RO'YXATDAN O'TKAZILGANLIGI TO'G'RISIDAGI GUVOHNOMA
СВИДЕТЕЛЬСТВО ОБ ОФИЦИАЛЬНОЙ РЕГИСТРАЦИИ ПРОГРАММЫ ДЛЯ ЭЛЕКТРОННО-ВЫЧИСЛИТЕЛЬНЫХ МАШИН

№ DGU 05338

Ushbu guvohnoma O'zbekiston Respublikasining «Elektron hisoblash mashinalari uchun yaratilgan dasturlar va ma'lumotlar bazalarining huquqiy himoyasi to'g'risida»gi Qonuniga asosan quyidagi EHM uchun dasturga berildi:

Настоящее свидетельство выдано на основании Закона Республики Узбекистан «О правовой охране программ для электронно-вычислительных машин и баз данных» на следующую программу для ЭВМ:

Сил беморлар пархезини миллий таомлар) хусусиятларини ҳисобга олган қолатда коррекция қилиш
Коррекция диеты больных туберкулёзом с учетом особенностей национальной кухни

Talabnoma kelib tushgan sana: / Дата поступления заявки: 16.05.2018
Talabnoma raqami: / Номер заявки: DGU 2018 0398

Huquq egasi(egalari): / Правообладатель(и): Авбарова Шарифа Эрниковна, Максумова Дилора Камоловна, Батирова Барчиной Таджинухамидовна, Маликова Асалхон Эргашевна, UZ

Dastur muallifi(lari): / Автор(ы) программы: Салиева Мансура Хабибовна, Орипов Шавкатбек Юлдашевич, Юсупов Кахрамон Мухиддинович, Мирзаева Малохаран Мамадалиевна, Халмирзаева Сохиба Сулеймановна, Усманова Гулнорахон Камолиддиновна, Самиулина Хилолахон Мухиддиновна, Хасанова Шоирахон Абдужаббаровна, Азизов Юрий Далиевич, Мамадиев Хусанбой Ганиевич, Хаитметов Равшанбек Сабирович, Ергебоев Жасурбек Махмудович, Хакимова Рузиён Абдурахимовна, Худайбердиева Мадина Жабборовна, Султонов Голибжон Иминиддинович, Маликова Асалхон Эргашевна, Авбарова Шарифа Эрниковна, Максумова Дилора Камоловна, Батирова Барчиной Таджинухамидовна, Салиев Акрамжон Расулович, UZ

O'zbekiston Respublikasi elektron hisoblash mashinalari uchun dasturlar davlat reestrida 30.05.2018 yilda Tashkent shahrida ro'yxatdan o'tkazilgan.

Зарегистрирован в государственном реестре программ для электронно-вычислительных машин Республики Узбекистан, в г. Ташкенте, 30.05.2018 г.

Bosh direktor / Генеральный директор А. Файзуллаев

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI INTELLEKTUAL MULK AGENTLIGI
АГЕНТСТВО ПО ИНТЕЛЛЕКТУАЛЬНОЙ СОБСТВЕННОСТИ РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН

ELEKTRON HISOBLASH MASHINALARI UCHUN YARATILGAN DASTURNING RASMIY RO'YXATDAN O'TKAZILGANLIGI TO'G'RISIDAGI GUVOHNOMA
СВИДЕТЕЛЬСТВО ОБ ОФИЦИАЛЬНОЙ РЕГИСТРАЦИИ ПРОГРАММЫ ДЛЯ ЭЛЕКТРОННО-ВЫЧИСЛИТЕЛЬНЫХ МАШИН

№ DGU 05335

Ushbu guvohnoma O'zbekiston Respublikasining «Elektron hisoblash mashinalari uchun yaratilgan dasturlar va ma'lumotlar bazalarining huquqiy himoyasi to'g'risida»gi Qonuniga asosan quyidagi EHM uchun dasturga berildi:

Настоящее свидетельство выдано на основании Закона Республики Узбекистан «О правовой охране программ для электронно-вычислительных машин и баз данных» на следующую программу для ЭВМ:

Вирусли ва алкоголли гепатитларни қиёсий ташхислаш усуллари
Методы дифференциальной диагностики вирусных и алкогольных гепатитов

Talabnoma kelib tushgan sana: / Дата поступления заявки: 16.05.2018
Talabnoma raqami: / Номер заявки: DGU 2018 0395

Huquq egasi(egalari): / Правообладатель(и): Хакимова Рузиён Абдурахимовна, Худайбердиева Мадина Жабборовна, Султонов Голибжон Иминиддинович, Маликова Асалхон Эргашевна, UZ

Dastur muallifi(lari): / Автор(ы) программы: Байжанова Насиба, Джураева Мухаббат Гуломовна, Юсупова Мамлакат Будиевна, Яубова Рапьиохон Максимовна, Валиева Нодирахон Мухаметжановна, Торжиева Гулбахор Алимжановна, Ахмадалиева Умидахон Кабилджановна, Туктаназарова Нергизахон Сайибовна, Усманова Эгамера Мамарафиковна, Каюмов Аваазбек Мутаибович, Пулатов Муаффар Эргашевич, Максумова Донохон Камоловна, Максумова Дилора Камоловна, Батирова Барчиной Таджинухамидовна, Авбарова Шарифа Эрниковна, Маликова Асалхон Эргашевна, Хакимова Рузиён Абдурахимовна, Худайбердиева Мадина Жабборовна, Султонов Голибжон Иминиддинович, Салиев Акрамжон Расулович, UZ

O'zbekiston Respublikasi elektron hisoblash mashinalari uchun dasturlar davlat reestrida 30.05.2018 yilda Tashkent shahrida ro'yxatdan o'tkazilgan.

Зарегистрирован в государственном реестре программ для электронно-вычислительных машин Республики Узбекистан, в г. Ташкенте, 30.05.2018 г.

Bosh direktor / Генеральный директор А. Файзуллаев

ELEKTRON HISOBLASH MASHINALARI UCHUN YARATILGAN DASTURNING RASMIY RO'YXATDAN O'TKAZILGANLIGI TO'G'RISIDAGI

GUVOHNOMA

СВИДЕТЕЛЬСТВО ОБ ОФИЦИАЛЬНОЙ РЕГИСТРАЦИИ ПРОГРАММЫ ДЛЯ ЭЛЕКТРОННЫХ -ВЫЧИСЛИТЕЛЬНЫХ МАШИН

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI ADLIYA VAZIRLIGI HUZURIDAGI INTELLEKTUAL MULK AGENTLIGI
АГЕНТСТВО ПО ИНТЕЛЛЕКТУАЛЬНОЙ СОБСТВЕННОСТИ ПРИ МИНИСТЕРСТВЕ ЮСТИЦИИ РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН

№ DGU 08224

Abdomenal orni erta aniqlashda diagnostik laparoskopiya qo'llashning ilmiy-nazariy asoslari
Брюшнополостной диагностический лапароскопии для раннего выявления абдоминального туберкулёза

Talabnoma kelib tushgan sana: 17.03.2020
Дата поступления заявки:
Talabnoma raqami: DGU 2020 0552
Номер заявки:

Huquq egasi(lar): Хужаберганова Мадина Жаборовна; Хакимова Рузикон Абдурахимовна, Худайбердиева Жабборг Мамлаткизи, UZ
Правообладатель(и):

Dastur muallifi(lar): Хужаберганова Жабборг Мамлаткизи, Хакимова Рузикон Абдурахимовна, Хакиров Нозиржон Сабирович, Маткурова Дилноза Камоловна, Худайбердиева Мадина Жаборовна, Баятрова Барчиной Таджимуратовна, Оразов Шерзодбек Абдишевич, Суллонов Голибжон Ихлас-Джонович, Махкумова Дилноза Камоловна, UZ
Авторы программы:

Узбекистан Республикасининг электрон ҳисоблаш машиналари учун дастурлар ягона реестрида 15.05.2020 йилда Тошкент шаҳрида рўйхатга олинган

Зарегистрирована в государственном реестре программ для электронно-вычислительных машин Республики Узбекистан, г. Ташкент, 15.05.2020 г.

Direktor
Директор
Т. Абдусаттаров

INTELLEKTUAL MULK AGENTLIGI

Olib borilayotgan ilmiy ishlar bo‘yicha 2020 yili 14 maqola, 23 tezis halqaro, respublika va mahalliy jurnallarda chop etildi.



Kafedrada o‘tgan o‘quv yilida ikkita o‘quv qo‘llanma chop etishga ruxsatnoma olindi va chop etildi:

O‘QUV ADABIYOTINING NASHR RUXSATNOMASI

O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligining 20 20 yil “14” avgust dagi “418” -sonli buyrug‘iga asosan

N.S.Xakimov, R.A.Xakimova, Z.Sh.Madumarova, M.A.Jo‘raeva
(muallifning familiyasi, ismi-sharifi)

5510100–Davolash ishi
(ta’lim yo‘nalishi (mutaxassisligi))

ning

talabalari (o‘quvchilari) uchun tavsiya etilgan

Ультразвуковое обследование беременности nomli
(o‘quv adabiyotining nomi va turi: darslik, o‘quv qo‘llanma)

o‘quv qo‘llanmasi

ga

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan litsenziya berilgan nashriyotlarda nashr etishga ruxsat berildi.

Vazir (imzo) *I.Madjidov*

M.O‘

Ro‘yxatga olish raqami *418-510*

O‘QUV ADABIYOTINING NASHR RUXSATNOMASI

O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligining 20 20 yil “14” avgust dagi “418” -sonli buyrug‘iga asosan

N.S.Xakimov, R.A.Xakimova, Z.Sh.Madumarova, M.A.Jo‘raeva
(muallifning familiyasi, ismi-sharifi)

5510100-Davolash ishi, 5111000-Kasb ta’limi,

(5510100-Davolash ishi),
(ta’lim yo‘nalishi (mutaxassisligi))

5510200-Pediatriya

ning

talabalari (o‘quvchilari) uchun tavsiya etilgan

Ультразвуковая диагностика болезней легких и плевры nomli
(o‘quv adabiyotining nomi va turi: darslik, o‘quv qo‘llanma)

o‘quv qo‘llanmasi

ga

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan litsenziya berilgan nashriyotlarda nashr etishga ruxsat berildi.

Vazir (imzo) *I.Madjidov*

M.O‘